

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TA'LIM VA TARBIYA  
ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH**

*Raximova Diloram Saparbayevna  
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi  
27-son IDU o'rta ta'lim maktabining  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*"Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo  
falokat masalasidir!"*

*Abdulla Avloniy*

**Annotatsiya:** o'quvchilarning kelajakda qanday kadr bo'lib yetishishi ko'p jihatdan uning boshlang'ich sinfda olgan tayanch bilimlariga bog'liq hisoblanadi. Huddi shuningdek, uning tarbiyasi ham boshlang'ich sinfda o'qituvchi tomonidan tushuntirilgan qoidalar asosida shakllanadi va shu asnosda davom qiladi. Ushbu jarayonda nimalarga e'tibor berish kerakligi uzoq yillik amaliyot jarayonida orttirilgan boy tajribalarga tayanilgan holda ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, pedagog, pedagogik faoliyat, zamonaviya texnologiya, axborot texnologiyalari, qadriyat.

Ta'lim va tarbiya – inson ongi maxsuli bo'lib, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omil hisoblanadi. Binobarin ta'lim va tarbiya tizimini to'g'ri tashkillashtirmasdan turib ongni rivojlantirib bo'lmaydi. Ongni to'g'ri shakllantirmasdan turib esa Biz ya'ni Yangi O'zbekiston ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Demak, Yangi O'zbekiston kelajaklari bo'lgan yoshlarni (kadrlarni) tayyorlash, yoshlarda ta'lim va tarbiyani to'g'ri shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bog'liq ekan [1-4].

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir dars o'tish jarayonida pedagogik dasturiy vositalarini quyidagi turlarga ajratib rejalashtirishi lozim. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi [5-6].

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan talablar quyidagilar hisoblanadi:

*Didaktik talablarga* quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik,

muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

*Metodik talablarga* quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorliligi, turli tumanligi, amalga oshirilishi.

*Psixologik talablarga* idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqati (qat'iyiligi, boshqaga ko'chishi), motivatsiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida o'quvchilarning yuqori darajadagi motivatsiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

*Texnik talablarga* shaxsiy kompyuterlar va ularning tashqi qurilmalari, test o'tkaziladigan manbalar kiradi.

*Estetik talablarga* quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

*Maxsus talablarga* quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiasiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik.

*Ergonomik talablarga* quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

*Metodik talablar* pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi.

**Xulosa:** So'nggi paytlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Natijada avvallari an'ana bo'lgan ta'lim jarayonida qo'llanadigan metodlar o'rniga yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlar kirib kela boshladi. Mavzularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning mustaqil fikr yuritishlariga undash bevosita o'qituvchi faoliyatiga bog'liqdir. Zero, yangi ta'lim standartlarini o'zlashtirish kafolati

yangicha zamonaviy metodlarni qo'llashni talab etadi. Ta'lim tizimidagi islohot munosabati bilan boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan talablar o'qish darslarida pedagogik texnologiyalarning rivojlantiruvchi, differentsiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo'naltirish, izlanish, muammoli o'qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'qish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o'quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o'qitish, musobaqa–bellashuv metodlaridan, turli interfaol metodlardan foydalaniladi. Darslarni aqliy hujum, mustaqil tahlil, ta'limiy o'yin, turli sahna ko'rinishli andazasiz usullardan foydalanib uyushtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Savod o'rgatish davrida ham o'quvchilarning mavzuni chuqur o'zlashtirishlarini, uni tahlil qila olishlarini ta'minlash kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e'tibor qaratiladi. Bunda interfaol metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'quvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo'ldosheva SH. Savod o'rgatish metodikasi.- Toshkent, "O'qituvchi", 2015[1]
2. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar // Boshlang'ich ta'lim, 2009[2]
3. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2016[3]
4. Matnazarova K. O'qitishning faol metodlari// Boshlang'ich ta'lim, 2009, [4]
5. Andrey Viktorovich Isaev, Lyudmila Aleksandrovna Isaeva and Alla Grigorievna Kravets. Individualized Educational Trajectory: Educational Courses Integration. World Applied Sciences Journal 24 (Information Technologies in Modern Industry, Education & Society): P. 62-67, 2013 ISSN 1818-4952 © IDOSI Publications.
6. A.A.Ibragimov. Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. –Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. - 80 bet.